Tadqiqot metodologiyasi sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida interfaol, amaliy hamda muammoli ta'lim usullaridan foydalanishga asoslangan. Maqolada "RS doirasi", "Qarorlar shajarasi", "Kubik strategiyasi", "Klaster", "Davra suhbat", "Muammoni yechish", "To'qqiz burch", "Fun puzzle" kabi metodlar orqali talabalarni faol fikrlashga, sog'lom turmush qoidalarini amaliy jihatdan anglashga, reproduktiv salomatlik, gigiyena, jismoniy faollik, zararli odatlarning oldini olish hamda kun tartibini to'g'ri tashkil etish bo'yicha mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirish nazarda tutilgan.

Ushbu metodlar guruhli ishlash, savol-javob, muhokama, xarita tuzish, klasterlash, vaziyatli tahlil va amaliy mashg'ulotlar orqali bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni kundalik hayot bilan bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik tahlil hamda qiyosiy taqqoslash metodlaridan ham foydalanildi. Olingan natijalar asosida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi aniqlanib, ta'lim jarayonini boshqarishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqola tahlili shuni ko'rsatdiki, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini samarali shakllantirish faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarni real hayotiy vaziyatlar, guruhli topshiriqlar va amaliy faoliyatga jalb etish orqali yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Interfaol metodlar talabalarni sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy va jamoaviy gigiyena, psixogigiyena, reproduktiv salomatlik, zararli odatlardan saqlanish hamda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat kabi yo'nalishlarda faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Natijada bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush madaniyati, pedagogik mas'uliyat, profilaktik



fikrlash, bolalar bilan sog'lomlashtiruvchi ishlarni tashkil etish ko'nikmalari hamda ta'lim jarayonini samarali boshqarish malakalari rivojlanadi.

Tizimli boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda interfaol metodlardan foydalanish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlarning xilma-xilligi ularni amaliyotda keng qo'llash imkonini beradi hamda yuqori samaradorlikka xizmat qiladi. Jumladan, "Event", "3D", "4K", "FSMU", "Baliq", "Taqqimot", "Markazda o'qituvchi", "Blits so'rov", "Ajurli arra", "Portfolio", "Keys-stadi", "Klaster", "Assessment", "Aqliy hujum", "Zanjir", "Markazda talaba", "Kichik guruhlarda ishlash", "Zig-zag", "Algoritmni qo'llash", "Tahlil qilish", "Debat", "Qora quti", "Qarorlar shajarasi" kabi metodlar ta'lim jarayonida samarali natija beradi.

"RS doirasi" metodida muayyan doiralarga o'ziga xos belgilar yozilib, markaziy doirada reproduktiv salomatlikning mohiyatini ifodalovchi asosiy tushuncha aks ettiriladi. Ishtirokchilarga berilgan topshiriqda doirachalar guruhdagi ishtirokchilar soniga qarab belgilanadi. Masalan, ikki yoki to'rt doiradan iborat topshiriqlarda guruh a'zolari o'z fikrlarini doiralarga yozadilar. Fikrlar umumlashtirilgandan so'ng, guruh vakili ularning mazmunini izohlab beradi. Ushbu metod talabalarning reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini tizimlashtirish, erkin fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirish yo'llari, usullari va shakllarini tushuntirishda "Qarorlar shajarasi" metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metod murakkab va turlicha qarorlar qabul qilishni yengillashtiruvchi hamda yo'naltiruvchi pedagogik texnologiya hisoblanadi. "Qarorlar shajarasi" orqali talabalar mavjud muammolarni tahlil qilish, qarorlarning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda eng maqbul variantni tanlash ko'nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, metod talabalarning bilimlarini umumlashtirish va baholash imkonini ham beradi.

Kun tartibini oqilona rejalashtirish va unga muntazam rioya qilish bo'yicha mashg'ulotlarda talabalar bilan bir kunlik faoliyat mazmuni muhokama qilinadi. Bu jarayonda quyidagi savollar asosida munozaralar tashkil etiladi:

1. Inson reproduktiv salomatligini ta'minlashning ahamiyati nimada?
2. Reproductiv salomatlik gigiyenasiga qanday amal qilasiz?
3. Reproductiv madaniyatning afzalliklari nimada?
4. Kun tartibiga muntazam amal qilasizmi?
5. Kun tartibini to'g'ri tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
6. Reproductiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirishga qanday erishyapsiz?

Trening ishtirokchilari uchta guruhga bo'linib, ularga bir kunlik kun tartibini rejalashtirish topshiriladi. Guruhlar o'z fikrlarini bayon qilganlaridan so'ng, trener ishtirokchilar bilan birgalikda optimal kun tartibini ishlab chiqadi va quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratadi:

- organizmning to'g'ri rivojlanishi;
- irodaning mustahkamlanishi;
- mehnat unumdorligi va ishchanlik qobiliyatining uzoq muddat saqlanishi;
- kun tartibiga muntazam amal qilish;
- kasalliklarning oldini olish;
- reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirish.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, interfaol va amaliy metodlardan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini samarali boshqarishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Qoida mohiyati xususida shuni qat'iy aytish mumkinki, kun tartibiga qat'iy amal qilish o'quvchilarga uyqu, mehnat, ovqatlanish, televizor ko'rish, sport bilan shug'ullanish, dars tayyorlash, shuningdek, uy ishlariga ko'maklashish uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Faqat uni oqilona rejalashtira bilish talab etiladi.

Kun tartibini tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- turli faoliyat turlarini tashkil etish, ularning maqbul davomiyligini belgilash hamda faoliyatlar almashinuvini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- dam olish vaqtini imkon qadar ochiq havoda o'tkazish;
- o'z vaqtida va sifatli ovqatlanish;
- gigiyenik uyquni ta'minlash hamda salomatlik madaniyatini shakllantirish.

Insonning reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini rivojlantirishda faol jismoniy harakat muhim o'rin egallaydi. Reproductiv salomatligi mustahkam bo'lgan va sog'lom turmush tarziga amal qilgan insonlar hayotidan misollar keltirish, Vatanimiz sportchilarining yutuqlari haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarda chiniqishning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchalarni shakllantirish mumkin. Bu esa ularda jismoniy faollikka bo'lgan qiziqish va rag'batni kuchaytiradi hamda turli zararli odatlar va nosog'lom turmush tarzidan saqlanishga yordam beradi.



Salomatlik va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda sog'lom turmush qoidalariga amal qilish, sport bilan shug'ullanishning ahamiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish hamda faol harakatni tashkil etishga yordam beruvchi usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Trener tomonidan mavzuning mohiyatini ochib berishga qaratilgan faoliyat quyidagicha tashkil etiladi:

- ishtirokchilar o'zlari yashaydigan hudud tasviri aks etgan xarita bo'laklari yordamida uch guruhga bo'linadi. Ushbu usul ishtirokchilarning diqqatini asosiy mashg'ulotga yo'naltirish bilan birga, sanitariya va gigiyena borasidagi muammolarni anglash imkonini beradi;

- guruh a'zolariga o'zlari yashaydigan hudud xaritasini chizish topshiriladi;
- xaritalar taqdimotidan so'ng, o'quvchilarga toza havoning inson organizmiga ta'siri haqida fikr bildirish vazifasi yuklatiladi;
- birinchi guruhga faol jismoniy harakatning organizmga ta'siri, ikkinchi guruhga faol jismoniy harakat turlari, uchinchi guruhga esa faol jismoniy harakatni rejalashtirish bo'yicha fikrlar ishlab chiqish topshiriladi.

“Kubik strategiyasi” metodi

Ushbu metod ishtirokchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi hamda guruh a'zolarining bir-birini hurmat qilishga imkon yaratadi.

Vazifalar:

1. Talabalar bilan ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish, ma'lum sport to'garaklariga qatnashishning ahamiyati hamda Respublika sportchilarining yutuqlari haqida suhbat o'tkaziladi.

2. Guruh a'zolari turli rangdagi kartochkalar yordamida uch guruhga bo'linadi (har bir guruhda 5–6 kishi).

3. Oldindan tayyorlangan va yo'naltiruvchi savollar yozilgan “kubik” o'quvchilarga beriladi. Ishtirokchilar 10 daqiqa davomida savollarga yozma javob tayyorlaydilar hamda guruh vakillaridan biri javoblarni himoya qiladi.

2-usul. Guruhlarga klassifikatsiya va test topshiriqlari berilib, “Kubik strategiyasi” metodi asosida kubik taxtasida berilgan savollarga javoblar yoziladi.

6–7 yosh davri murakkab rivojlanish bosqichi hisoblanib, ushbu davr inson qaddi-qomatining shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sanaladi. Bu davr anatomik-fiziologik jihatdan yetilish va rivojlanishga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Shu sababli jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishda faol jismoniy harakat, insonning o'zini to'g'ri tutishi hamda reproduktiv salomatlikni ta'minlash nihoyatda muhim ekanligi talabalarga tushuntiriladi.

Vazifa: har bir talabaga qaddi-qomatning to'g'ri shakllanishini ta'minlash maqsadida “Men ushbu omillarni kundalik faoliyatimda bajarishim kerak” mavzusida reja-xarita tayyorlash topshiriladi.

3-usul. “Kubik strategiyasi” metodi

Inson salomatligini ta'minlashda asosiy o'rinni faol jismoniy harakat, ya'ni chiniqish hamda gigiyenik talablarga rioya qilish egallaydi. Sog'lom umr kechirgan insonlar hayoti va Respublika sportchilari erishgan yutuqlar haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarda chiniqishning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. Shuningdek, ularda jismoniy harakatni tashkil etishga nisbatan qiziqish va rag'bat hosil qilinadi.

Vazifalar:

1. Ertalabki jismoniy mashg'ulotlarni bajaradigan, sport to'garaklariga qatnashadigan talabalar hamda Vatanimiz sportchilarining yutuqlari haqida suhbat tashkil etiladi.

2. Talabalar turli rangdagi kartochkalar yordamida uch guruhga bo'linadi (har bir guruhda 5–6 nafar ishtirokchi bo'lishi mumkin).

3. Talabalar doskada “Jismoniy tarbiyaning inson reproduktiv salomatligini rivojlantirishdagi ahamiyati” mavzusida “Klaster” strukturasi tuzadilar.

4. Talabalar 10 daqiqa davomida o'z fikrlarini qog'ozga yozadilar va guruh a'zolaridan biri javoblarni himoya qiladi.

Shaxsiy va umumiy gigiyenaga oid mashg'ulotlarda talabalarning avvalgi darslarda berilgan topshiriqlar yuzasidan fikrlari o'rganiladi. Ular ertalab darsga kelish jarayonida shaxsiy va jamoaviy gigiyenaga oid kuzatgan holatlarini chizmalar yordamida ifodalaydilar hamda muhokama uchun muammoli vaziyatlarni taqdim etadilar. Mazkur muammolar jamoaviy tarzda tahlil qilinib, yechimlari ishlab chiqiladi.

Shaxsiy gigiyena haqida aniq tushunchalarni shakllantirish va unga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda “Klaster” metodining ahamiyati katta. Mazkur metod asosida shaxsiy gigiyenani klassifikatsiyalash imkoniyati yaratiladi. Uning tashkil etilish sxemasi quyidagicha:

- ishtirokchilar tug'ilgan oylariga qarab guruhlarga bo'linadi;
- ishtirokchilar shaxsiy gigiyena tushunchasiga nimalarni kiritish mumkinligi haqida fikr yozib, klaster hosil qiladilar;
- guruh a'zolaridan biri tuzilgan klasterni namoyish etadi;
- trener tomonidan olingan natijalar umumlashtiriladi.



Umumiy gigiyena qoidalari yuzasidan yo'naltiruvchi bilimlar berilganda, jamoaviy gigiyenaga rioya qilishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi bo'yicha ham klaster tuziladi. Shuningdek, mavzuni atrof-muhit bilan bog'lab o'rganish orqali talabalar ongida yaxlit tushuncha shakllanadi hamda gigiyena talablariga amal qilishning sog'lom turmush tarzidagi ahamiyatini chuqur anglashlari uchun zarur pedagogik sharoit yaratiladi.

II. Atrof-muhit va uni muhofaza qilishga o'rgatishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda "Gender muammosi" usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki ushbu usul orqali talabalarda nafaqat sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishda teng huquqlilik (gender tengligi) tushunchalarini ularning ongiga singdirishga erishiladi. Bunda:

- guruhdagi ishtirokchilar jinsiga qarab ikki guruhga bo'linadi;
- ularga rasmlar tarqatilib, qiz va o'g'il bolalarga xos bo'lgan vazifalarni guruhlash topshirig'i beriladi;
- talabalar rasmlarni nima sababdan aynan shu tarzda guruhlaganliklarini asoslab berishlari kerak bo'ladi;
- trener tomonidan berilgan yo'naltiruvchi savollar ("Bu rasmdagi o'g'il bolaga tegishli deb topilgan vazifani qizlar ham bajara oladimi?" va hokazo) asosida talabalarning fikr va mulohazalari umumlashtiriladi.

Psixogigiyena talablariga amal qilish hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga oid bilimlar berilganda, talabaning ertalab seminar mashg'ulotiga kelish jarayonida uning ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatgan holatlar yuzasidan munozaralar olib boriladi. Shundan so'ng trener tomonidan mavzu yuzasidan muhokamalar tashkil etiladi. Ishtirokchilar bir necha guruhlariga bo'linib faoliyat yuritadilar:

- birinchi guruhga — psixogigiyena talablari;
- ikkinchi guruhga — psixogigiyena va reproduktiv salomatlik;
- uchinchi guruhga — psixogigiyena talablariga amal qilmaslikka sabab bo'luvchi omillar;
- to'rtinchi guruhga — psixogigiyena haqidagi ma'lumotlarni qayerlardan olish mumkinligi;
- beshinchi guruhga — psixogigiyena talablari va uning ahamiyati haqidagi bilimlarni o'quvchi-yoshlarga qanday usullar yordamida yetkazish hamda malakalarni shakllantirish mumkinligi bo'yicha yo'naltiruvchi savollar topshiriladi.

Har bir guruh tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalardan so'ng ularning javoblari trener tomonidan umumlashtiriladi. "Biz o'zimizga reproduktiv salomatlikni tanladik" nomli taxtaga "Psixogigiyena qoidalari" sarlavhasi ostida umumiy psixogigiyena qoidalari yozilib, osib qo'yiladi.

Jinsiy tarbiya haqida tushuntirish ishlari olib borilganda muammoli usuldan yozma shaklda foydalanish katta samara beradi.

Buning uchun:

- ishtirokchilar jinsiy tarbiya mavzusida uyda tayyorgarlik ko'rib, materiallar to'plab kelishlari kerak. Bahs jarayonida trener jinsiy tarbiyaning mohiyati haqida ishtirokchilarga ma'lumot berar ekan, munozaraning qanday tartibda o'tishini qisqacha tushuntiradi;
- ishtirokchilar avval individual tarzda, so'ng kichik guruhlariga bo'linib faoliyat olib boradilar;
- trener birinchi guruhga jinsiy tarbiya mezonlari, ikkinchi guruhga yoshlarda kuzatilayotgan jinsiy tarbiyaga zid odatlar, uchinchi guruhga esa yoshlarga to'g'ri jinsiy tarbiya berish yo'llari haqida yozma fikr tayyorlash topshirig'ini beradi;
- jinsiy tarbiyada aynan ushbu usuldan foydalanish, avvalo, ishtirokchilarning bo'lajak tarbiyachi sifatida yoshlarga qanday tarbiya berish zarurligini anglab yetishlari hamda yo'l qo'yilayotgan xatolarni tushunish asosida o'zligini anglashga xizmat qiladi.

2-usul. "Reproduktiv salomatlikni saqlash muammosi"

O'g'il va qiz bolalarga xos bo'lgan xususiyatlar, shuningdek, ularga nisbatan qo'yiladigan psixogigiyena talablarining ahamiyati haqidagi bilim va malakalarni shakllantirish asosida jinsiy tarbiyani tashkil etish nazarda tutiladi.

Vazifa: Talabalar qiz va o'g'il bolalar guruhlariga bo'linadi.

- Jarohatlanish va baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ishtirokchilar 3–4 guruhga bo'linib, tayyorgarlik uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular sovuq urishi yoki kuyish holatlarida ko'rsatiladigan birinchi yordam usullarini trener ko'rsatmasi asosida amaliy tarzda bajaradilar;
- zararli odatlar haqida ma'lumot berish talabalarda sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, giyohvandlik va OITS kasalligi haqida nazariy ma'lumotlar berilib, ulardan saqlanish yo'llari tushuntiriladi.

Maqsad: zararli odatlarga qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning inson salomatligiga qanchalik zarar yetkazishini kundalik hayot misollarida yoritib berish.

1-usul — "Muammoni yechish" metodi

Mazkur metoddan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotda ishtirokchilar 4 guruhga bo'linadi:

- birinchi guruhga — zararli odatlar;



- ikkinchi guruhga — chekishning inson organizmiga ta'siri;
- uchinchi guruhga — insonning zararli odatlarni o'zlashtirishiga sabab bo'luvchi omillar;
- to'rtinchi guruhga — zararli odatlardan qutulish yo'llari haqida fikrlarni plakatga yozish va himoya qilish vazifasi topshiriladi.

2-usul "Davra suhbat"

Vazifa: Ushbu mavzu maktab hamshirasi, ota-ona va guruh rahbari bilan birgalikda olib borilsa, bolalarga ijobiy ta'sir qilishi tabiiy.

Muammo: Nima uchun inson zararli odat bilan shug'ullanadi, u chekmasa, ichmasa tura olmaydi? Bunday odatni o'zlashtirgan shaxs oldida 2 yo'l bor:

1. Zararli odatdan voz kechish. Xo'sh, undan qanday qilib voz kechish mumkin?
2. 1-guruh fikrini 2-guruh ishtirokchilari davom ettirishlari kerak;
3. Ma'lum darajada hayotdagi o'z o'rnini yo'qotadi.

3-usul: Adabiyot, gazeta va jurnallar bilan ishlash; munozara; muammoni keltirib chiqarish.

Maqsad: Zararli odatlar haqida umumiy tushunchalar va ularning inson organizmiga ta'siri haqida to'liq tushunchalar berish, shuningdek, zararli odatlarning oldini olish.

Vazifa:

1. talabalarga oldindan gazeta va jurnallardan zararli odatlar bo'yicha materiallar to'plab kelish topshiriladi.
2. Mazkur darsda har bir guruh mavzuga oid devoriy gazeta chiqarishi kerak.

Mazmun: Taniqli sayyoh Xristofor Kolumb tomonidan Yevropaga olib kelingan va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi tamakini iste'mol qilishga bo'lgan qiziqish hamda uni bartaraf etish yo'llari.

4-usul: Muammoli usul, "To'qqiz burch" metodlari.

Maqsad: "XX asr vabosi" nomini olgan OITS kasalligi va uning oldini olish borasida umumiy ma'lumot, uning inson salomatligiga ta'siri haqida keng tushunchalar berish bilan birgalikda talabalarni ogoh bo'lishga undash, ularda sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini shakllantirish.

Vazifa:

1-guruhga OITSning 9 xususiyati, 2-guruhga OITSning oldini olishning 9 yo'li va 3-guruhga zararli odatlarning kelib chiqishining 9 ta sababini ko'rsatish vazifasi topshiriladi.

- Ushbu treningdan olgan bilim va ko'nikmalingizni atrofdagilar bilan baham ko'ring.
- Reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirishni murakkab deb bilsangiz, u holda o'ylab ko'ring, reproduktiv salomatlikka oid bilimsizlik qanday oqibatlariga olib keladi?
- Reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirishga hamma mas'uldir, shu o'rinda siz ham.

Shunday ekan, o'zingiz va atrofdagilaringizga reproduktiv salomatlikka oid bilimlarni rivojlantirish borasidagi harakatni bugundan va hozirdan boshlang.

Shuningdek, "fun puzzle" (qiziqarli jumboq) — mazkur interfaol metod orqali talabalarni ta'lim olishga qiziqtirish va jismoniy harakatlanishga undaydi. Chunki mantiq va zukkolikni sinab ko'rish nafaqat ajoyib o'yin-kulgi, balki tom ma'noda sog'liq uchun ham foydalidir. Ilmiy isbotlanganki, bolalar jismoniy yuklamalardan kam bo'lmagan muntazam intellektual yuklamalarga muhtojdir.

Demak, qiziqarli jumboq usuli — bu guruhda talabalarning muvaffaqiyatga erishish uchun bir-biriga bog'liqligini ta'minlash usuli deb ta'riflash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, talabalarni guruhlarga bo'lib, vazifalarni qismlarga ajratish, muammoli vazifalarni hal qilish va nostandart yechimlarni topishga harakat qilish orqali ularning intellektual rivojlanishiga muhim hissa qo'shishiga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish va ularni samarali boshqarish bugungi kunning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonni tizimli tashkil etish orqali bo'lajak tarbiyachilarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish va kelajak avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion yondashuvlardan foydalanish hamda ta'lim jarayonini to'g'ri boshqarish sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy faollikni oshirish, sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish va gigiyenik qoidalarga rioya etish muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga undash, ularning motivatsiyasini oshirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish hamda ilg'or tajribalarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 18-son, 313-modda; 19-son, 335-modda; 24-son, 490-modda; 37-son, 982-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni // www.lex.uz.
3. Delors J. *Learning: The Treasure Within*. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. *Constitution of the World Health Organization*. – Geneva, 1948. OECD. *Health and Well-being in Education*. – Paris, 2020.
4. Irmatova A. *Aholi va reproduktiv salomatlik*. O'quv qo'llanma. – Toshkent.
5. Nazirova G. M. *Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari*. Monografiya. – Toshkent, 2018. – 118 b.
6. Tosheva Sh. T. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrab-avaylash, g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali sog'lom turmush tarzini rivojlantirish" // *Interpretation and Research*. – 2023.
7. Ishmuhamedov R. J. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>